

TIL - MILLAT KO'ZGUSI

Imomxo'jayeva Rayhona Qodirxo'ja qizi
Andijon davlat chet tillari instituti talabasi
Ilmiy rahbar: Xomidova Malohat Oktyabrjon qizi

Annotatsiya: Til-millat ko'zguni:bu uch so'z bir-biriga chambarchas bog'liq bo'lgan bir kichik olamdir.Bu olamni his etish uchun tilni chuqur bilish lozim.

Kalit so'zlar:Til, ko'zgu, hayot, dil, millat.

Abstract: Mirror of language and nation:these three words are a small world closely related to each other.In order to feel this world ,it is necessary to know the language deeply.

Key words: Language, mirror, life, heart, nation

Аннотация: Зеркало языка и нации:эти три слова-маленький мир.тесно связанный друг с другом.Чтобы почувствовать этот мир необходимо глубоко знать язык.

Ключевые слова: Язык, зеркало, жизнь, сердце, нация.

Millatning eng chuqur negizi bu tildir.Chunki til jamiyatning xusasan,insonning aloqa vositasidir.Bu aloqa vositani zero biz va butun dunyo o'zining tillarida foydalanadi.Bundan tashqari til millatning qalbi va ruhi . Bu ilohi tuyg'uni ham shu til aks etib, beradi. Bevosita til millatning tarixini hamda millatini o'rganishi ham bejiz emas. Tasavvur qiling, millat o'z tillarini o'ziga xos ranglarga bo'yaydi. Misol uchun o'zbek tilini, o'zbek tilining tarixi, madaniyati va an'analari hamda o'ziga xos jihatlari bilan rang barang bo'yoqlarda bo'yaydi.Lekin o'zbek tiliga, eng musaffo va sof bo'yoqlar ishlatish lozim.SHundagina millatning til deb atalmish eng yorug' ko'zguni ifoda bo'ladi.So'ng esa bu ko'zguning diliga nazar solamiz.Axir til, dil kabi pok tuyg'u.Dilda o'ylangan har bir so'z tilda aytiladi.Ammo til suyaksiz jism. O'rni kelganda har so'zni ham aytish to'g'ri kelavermaydi.Axir aytishadi-ku siz ham, sen ham bir tildan chiqadi deb.

Insonlarning orasida hohlaymizmi hohlamaymizmi tili boshqa dili boshqa odamlar bor. Ularning dilida sizga nisbatan yomon g'arazlar bo'lsa ham tilida shirin muomalani kanda qilmaydi.Bunday insonlar hushomad bog'ini gullatadi.Lekin bunday insonlarning ko'zi doim yolg'oni bildirib qo'yadi.CHunki insonning ko'zi hech qachon aldamaydi.Axir bu ko'z dilning oynasidir.Nimani so'rasangiz shuni ko'ra olasiz.

Eng yaxshi suhbatdosh bu- sizning o'zingiz.Inson yonidagi odamlarga nisbatan avvalo o'zini eshita bilishi kerak.O'zini chunishi, o'zi bilan ko'proq muloqotda

bo'lishi kerak. Rivojlanish, tillarni o'rganish eng avvalo o'zingizga bog'liq. Chunki til va millat bir birini uzviy saqlaydi. Til millatning o'ziga xosligini saqlab qolishga yordam beradi. Millat esa tilni rivojlantiradi boyitadi hamda o'ziga xos xususiyatlari bilan bezaydi. Bu ikkisi doim uzviy bog'liqlikda bo'ladi. Shuning uchun bu ikki so'z birga jaranglaydi. Bu so'zni talaffuz qilinganda doim birinchi urg'u avvalo millat so'ziga beriladi. Demak millatni anglash birinchi o'rinda turiladi, navbatida esa tilga e'tibor beriladi. Til esa kimligingizni, anglatadi. Tilingiz orqali millatingiz tushuniladi. Chunki qaysi tilda muloqot qilishingiz qaysi millatdan ekanligingiz bildiradi. Axir yer yuzasida 7000ga yaqin til bor. Demak bu tillarning o'ziga mos millati ham bor. Millat esa shuncha tillarni qamrab olgan mo'jizaviy zamindir. Bu zaminning ko'zgusi bo'lgan tilning mohiyatini anglash uchun yuqorida aytganimdek avvalo millatni anglash kerak. Shunday qilib, til millatning ko'zgusi uning ovozi, ruhi, tarixi, o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi.

Xulosa qilib aytganda, shaxsiy fikrim shundan iboratki, tilsiz millat o'zining o'tmishini eslay olmaydi, ruhini anglolmaydi hozirini ko'ra olmaydi, yashay olmaydi va kelajagini qura olmaydi.